

UDK: 556.113.3

AMU-BUXORO MASHINA KANALINING DALA-KUZATUV

NATIJALARI

Qayumova Sarvinoz - Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

“Gidrotexnik inshootlar va nasos stansiyalari” kafedrası stajyor-o’qituvchisi.

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
instituti” Milliy tadqiqot universiteti*

Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti

Buxoro

O’zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada kuzatuvlar jarayonida Amu-Buxoro mashina kanaliga Amu-Daryodan suv olish sathlari va suv bilan kirayotgan loyqadan tozalash hajmlari, harajatlari taxlil qilingan. Bugungi kunga kelib Amu Buxoro kanalining suv olish manbayi Amu Daryoning suvi loyqalik darajasi yuqoriligi hamda daryosuv sathini oldingi yillarga nisbatan pasaygani tufayli Amu Buxoro kanalining bosh qismida faqatgina bitta irmoq orqali suv kirib kelmoqda.

Tayanch so’zlar: Kanal, Daryo, Loyqa, Ekspluatatsiya, ABMK

RESULTS OF FIELD MONITORING OF AMU-BUKHARA

MACHINE CANAL

*Kayumova Sarvinoz,- Trainee-teacher of the department "Hydraulic
structures and pumping stations*

*Bukhara Institute of Natural Resources Management of the National
Research University of “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural
Mechanization Engineers”*

Bukhara

Uzbekistan

Annotation. In this article, in the course of observations, the levels of water intake from the Amu-Darya and the volumes and costs of cleaning the water entering the Amu-Bukhara machine channel are analyzed. To date, due to the high turbidity of the Amu River, the source of water of the Amu Bukhara canal, and the

decrease of the river level compared to previous years, water enters the main part of the Amu Bukhara canal through only one tributary.

Key words: Canal, River, Muddy, Exploitation, ABMC

Kuzatuvlar jarayonida eng ko'p duch kelingan muammo bu loyqa cho'kishi bilan bog'liq bo'lib, muammoni keltirib chiqaruvchi omillardan biri sifatida muallaq oqiziqqlarning kanaldagi gidrotexnik inshootlar oldida yig'ilib qolishi kuzatildi. Ma'lumki loyqa cho'kishi bevosita oqim tezligiga bog'liq jarayon bo'lib, agar oqim biron to'siqqa uchrashi natijasida o'z tezligini yo'qotadigan bo'lsa kanalda ko'milish vujudga keladi. Bu esa o'z navbatida ortiqcha sarf-xarajatni va qator muammolarni keltirib chiqaradi. Amu-Buxoro mashina kanaliga Amu-Daryodan suv olish satxlari va suv bilan kirayotgan loyqadan tozalash hajmlari, harajatlari taxlil qilingan. Amu-Buxoro mashina kanali Olot tuman boshqarmasining asosiy vazifasi Amudaryodan suvni sun'iy o'zanlar orqali olib, Amu-Buxoro kanallari, gidrotexnik inshootlar yordamida va nasos stansiyalar orqali ko'tarib berilib, Amu Buxoro Kanalining PK 1203+00 gacha yetkazib berishdir. Yuqorida sanab o'tilgan qurilma va inshootlarni maromida ishlatish joriy va to'la ta'mirlashlarni o'z vaqtida olib borish uchun boshqarma tizimida quyidagi bo'limlar va sexlar tuzilgan: Ma'muriyat; kanallar xizmati va ekspluatatsiyasi bo'limi; elektrotexnika bo'limi; elektrolaboratoriya bo'limi; mexanika sexi; qurilish ta'mirlash sexi; moy xo'jaligi; avtotraktor parki; uy joylardan foydalanish bo'limi; markaziy dispetcherlar bo'limi; bosh to'g'on uchastkasi; ikkilik suv tarqatish inshooti uchastkasi. Asosiy va yordamchi uskunalarni o'z vaqtida sifatli ta'mirlash va inshootlarning texnik xolatini yaxshilash va to'xtovsiz ishlashiga imkon beradi.



1-rasm.Amu-Buxoro kanalidagi zemsinaryat.




2-rasm Amu-Buxoro kanalidagi zemsinaryatning ishchi qismi.

Qurilma va inshootlarning eskirish va ularga ketadigan xarajatlarning xisobi o‘z vaqtida olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Amu-Buxoro mashina kanali boshqarmasi Amu-Daryodan birinchi va ikkinchi sun’iy o‘zanlar orqali Bosh to‘g‘on inshootidan kerakli mikdordagi suv olinib, «Ikkilik suv tarqatish» inshootida ABK-1, ABK-2 navbatlari, AKK va

yamanjar kanallariga bo‘linib, Buxoro-1, Buxoro-2, Jondor-1 ko‘tarma va Xamza yordamchi nasos stansiyalari yordamida suvni ko‘tarib, Buxoro va Navoiy viloyatlariga yerlarni sug‘orish uchun suv yetkazib beradi.

Amu-Daryodan suvning mavsumiy o‘zgarishiga qarab birinchi va ikkinchi sun’iy o‘zanlar orqali olinadi. Bu o‘zanlarning uzunligi 22 km tashkil qiladi. Suniy o‘zanlar mavsumiy ravishda Amu-Daryoning suv satxining o‘zgarishiga qarab ochib yopiladi.



3 -rasm. Bosh inshootdan Ikkilik suv taqsimlash inshootigacha oqiziqlar diagramasi.

Bugungi kunga kelib Buxoro viloyati hamda Navoiy viloyatining bir qismini suv bilan tamolovchi Amu Buxoro kanalining suv olish manbayi Amu Daryoning suvi loyqalik darajasi yuqoriligi hamda daryo suv sathini oldingi yillarga nisbatan pasaygani tufayli Amu Buxoro kanalining bosh qismida faqatgina bitta irmoq orqali suv kirib kelmoqda. Daryodan yani suv olish manbayidan Bosh inshootgacha bo‘lgan masofadagi kanal uzunligi 11 km shundan PK00+00 dan PK 23+00 gacha yani 2.3 km tindirgich vazifasini bajaradi. Hozirgi vaqtga kelib bu tindirgich va bosh inshootgacha bo‘lgan suv olib kelish kanali doyimiy uzluksiz 36

ta zemsnaryatlar ishlab kanalga cho'kib qolayotgan loyqani chiqarib tashlamoqda. Ushbu zemsnaryatlarning 34-tasi elektr energiyasi orqali ishlaydi, 2-tasi esa dizel yoqilg'isi bilan ishlab turibdi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda Amu- Buxoro mashina kanali (ABMK) ga suv olish jarayonida kanalga loyqa kirishini kamaytirish bo'yicha texnik tadbirlar ishlab chiqish kerak. Shu maqsadni ko'zlab quydagi masalalar bilan tanishib chiqilish zarur.

1.Amu-Buxoro magstiral kanali joylashgan hududning o'ziga xos tabiiy geografik xususiyatlari o'rganish;

2.Amu-Buxoro magstiral kanaliga suv beradigan daryoning gidrologik rejimi: ularning suv sathi, harakterli suv sathlari o'rganish;

3.Magstiral kanalning suv balansi asosiy elementlari dinamikasi, kanallar orqali chiqib ketadigan oqim dinamikasi hamda suv miqdorining yil davomida o'zgarishi o'rganilib, grafiklar chizilishi;

4.Amu-Buxoro magstiral kanali ning tubida cho'kkan loyqa oqiziqlarning 100% daryodan keladigan suvning loyqalik darajasi hissasiga to'g'ri kelganligini aniqlash;

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bakiev M.R, Rahmatov N., Ibraymov A. Kanaldagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish Toshkent 2018-yil

2. Bakiyev M.R., Kaveshnikov N., Tursunov T., Gidrotexnika inshootlaridan foydalanish. Toshkent, 2011 y.

3. Bakiev M.R., Кириллова Е.И., Талипов Ш.Г., Эрназаров Н.Ш. «Эксплуатационная надежность и безопасность гидротехнических сооружений». Методическое пособие. Tashkent, TIIM, 2012 g.

4. Rahmatov N. Правовые вопросы обеспечения безопасности ГТС на трансграничных водных объектах бассейна Сырдарьи. "Ирригация и мелиорация" журнаli, Toshkent, № 4 2017 yil.